

AMIR TEMURNING 1391 YILNING 18 IYUNIDA KONDURCHA DARYOSI BO'YIDAGI JANGIDA QO'SHININI JANGOVAR TARTIBI

Mamajonov Soyibjon Halilovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi,

Axmadaliyev Muxammadali G'aybillojjon o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti talabaisi.

Urmonjonov Dostonbek Orifjon o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti talabaisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning jang olib borishda qo'shinini jangovar tartibi va harbiy san'ati xaqida qisqacha yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Jang, harbiy san'at, o'rnak ko'rsatish, taktik usul, qipchoq cho'llari, stavka.

Amir Temur o'zining barcha janglariga tayyorgarlik ko'rar ekan doyim o'z qo'shinini jangga oldindan tayyorlagan. Bo'lajak raqibini, jang bo'lib o'tadigan joyni oldindan o'rganib chiqqan va qo'shinini jangovar tartibini tuzgan. 1391- yilning 18-iyunida Kondurcha daryosi bo'yida (Rossiya hududidagi hozirgi Samara viloyati) Amir Temur va To'xtamish qo'shini o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Bu jangga ham u o'ziga hos usulda hozirlik ko'rgan. Ushbu jangda har ikkala tomondan taxminan 400 ming jangchi qatnashgan va bu jang o'sha davrning eng yirik janglaridan biri bo'lgan.

To'xtamish eski mo'g'ul taktikasi tamoyillarga amal qilgan, unga ko'ra jangning oqibatini otliq armiyaning qanotdan beradigan zarbasi hal qilar edi. Amir Temur aksincha, o'zining tajribali, oqil va donishmand sarkarda ekanligini ko'rsatib, ilk bora qo'shinni etti qo'ldan iborat murakkab tartibda safladi.

Amir Temur armiyasining ushbu jangdagi jangovar tartibi Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiyning asarlarida to'lig'icha aks ettirilgan. U Sohibqironning shaxsan o'zi tomonidan tuzilgan. Amir Temur birinchi bo'lib jangovar tartibni «etti qo'l», ya'ni korpuslar usulida tashkil etdi, shu vaqtgacha hech kim bunday jangovar tartibni qo'llamagan edi. Sharofiddin Ali Yazdiy bu to'g'risida shunday yozadi: «Hukmdor o'zi yurib qo'shinni etti qo'l tartibida safladi. Shu paytgacha hech bir podshoning qo'shinni bunday saflaganini eshitmaganman». Shunday tartibda saflangan qo'shin g'animning qanotlardan beradigan zarbasiga yoki uning aylanib o'tishiga muvaffaqiyatli qarshi tura olar edi. Yana uning ma'lumot berishicha g'animning qo'shini Amir Temurning qo'shiniga qaraganda bir nechta *koshunga* (500 kishiga ega bo'lgan harbiy bo'linma) ko'p edi. Undan tashqari Sohibqiron o'rdaliklar

otliqlarining manyovrlariga to'sqinlik yaratilgan sharoitda (daryoning sohilida) jangga kirdi.


Amir Temur qo'shinining jangovar tartibi quyidagicha edi (1-rasm). Markazda saflangan qo'lga amir Sulaymonshoh qo'mondonlik qildi. Bu qo'lning ortidan mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi ikkinchi qo'l saf tortdi. Barang'orda Mirzo Mironshohning qo'li saflandi, Xo'ja Sayfiddinning qo'li qonbul rolini bajarib o'ng qanotda saflandi. Juvang'or mirzo Umarshayxning qo'shinidan tashkil topdi. Qonbul sifatida – chap qanotda Berdibek Saribugning qo'li joylashdi. Qo'shin jangovar tartibining markazi manglay (avangard) tomonidan to'sib turildi. Qo'lning front ortida Oliy Bosh Qo'mondon Amir Temurning qarorgohi bilan chag'dovul joylashdi. U qo'shini safidan 20 minglik qudratli zaxira yaratdi, ushbu zaxira kuchlari jangning natijasi uchun hal qiluvchi rol o'ynadi. Shunday zaxira kerakli vaqtda To'xtamishda yo'q edi.

Qaramaqarshi tomonda To'xtamish o'z qo'shinini besh qismga bo'ldi, ularga ko'zga ko'ringan sarkardalar va Dashti Qipchoqning bahodirlari qo'mondonlik qildilar.

To'qnashuvdan oldin Amir Temur barcha etti qo'llarni jangga kiritishga hozirlandi, lekin kutilmaganda hujumdan voz kechib turib, hayratda qolgan dushmanning ko'z o'ngida chodirlar tikishga buyruq berdi. Bu dushmandan hech qanday hayiqish yo'q ekanligining belgisi bo'lib, xohlagan paytda dushmanga tashlanishi mukinligini bildirar edi. Esankirab qoldi. Dushmanning xurofot tuyg'usiga ta'sir o'tkazish va o'z qo'shinida dushmanga nafrat uyg'otish uchun u nabirasi Mirzo Abubakir otryadiga chodirlarning oldida qozonlarda ovqat pishirishga buyruq berdi. Bunday ruhiy hujum dushmanni shunday esankiratib qo'ydi, u turgan joyida qotib qoldi. Birinchi bo'lib jangga kirishga botin olmay turgan To'xtamish, oxir-oqibat qo'shinni pala-partish jangga kiritdi. Bu bilan Sohibqiron ikki maqsadga erishdi: dushmanning ruhiyatiga ta'sir o'tkazdi va uning o'zi uchun noqulay joydan hujumga o'tishiga erishdi.

Jang uch kun davom etdi. Bu jangda To'xtamish armiyasi mag'lubiyatga uchradi va u qo'lga tushmaslik uchun cho'lga yashirindi.

Minglab mo'g'ullar jangda halok bo'ldi. Ammo Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha Amir Temur uchun ham bu g'alaba oson bo'lmadi.



1-rasm. 1391 yil 18 iyundagi Qo'ndurcha daryosi

Jang Amir Temur tayyorlagan senariy bo'yicha kechdi, jang uchun joyini Sohibqironning o'zi tanlagan edi.

Jangning oqibatini qudratli zaxiraning jangga kiritilishi va qanotlardan berilgan kuchli zarba hal qildi.

1391 yilda To'xtamishga qarshi qilingan birinchi harbiy yurishni va olib borilgan jangovar harakatlarni tahlil qilishda asosiy natijalardan asosiy quyidagi ta'limni ko'rsatish mumkin:

1. Qondurcha jangida Amir Temur birinchi bo'lib o'z qo'shinini etti qismga bo'lishdek yangi jangovar tartibni qo'lladi. Qudratli zaxira ham ajratildi.
2. Jangdan oldin Sohibqiron dushmanning ruhiy ma'naviyatiga putur etkazishga qaratilgan ruhiy hujumni o'tkazdi.
3. Jangning natijasini zaxirani jangga kiritilishi va Amir Temurning qanotdan bergan qudratli zarbasi hal qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyevich, M. A., Khalilovich, M. S., & Mirhokimovich, T. A. (2022). Main Problems of Military-Professional Activity Orientation of Young Students. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 4, 68-70.
2. Hasanboyevich, M. A., Halilovich, M. S., & Ortikovich, U. A. (2022). AMIR TEMUR ARMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA TUZILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1037-1040.
3. Мамажонов, С. (2022). ЁШЛАР ЎРТАСИДА ҒАЙРИИЖТИМОЙ ХУЛҚ-АТВОР ТАРҚАЛИШИГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧОРАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Science and innovation*, 1(С6), 323-334.
4. Khalilovich, M. S. (2022). Sultan Jalaliddin Manguberdi's Struggle Against the Mongolia Invasion. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 80-81.